

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



## BOBURIYLAR DAVRI BHAKTI SHE'RIYATIDA MILLIY AN'ANALAR IN'IKOSI

*Ulfatxon Muhibova**O'qituvchi, filologiya fanlari doktori, professor,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** braj, nanddas, bhakti, she'riyat, krishna, chxitsvami.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Hindistonda Boburiylar davrida rivoj topgan bhakti adabiy merosida aks etgan hind milliy qadriyatlar haqida so'z yuritiladi. Ushbu qadriyatlar, aslida, qadimgi hind eposlari tarkibida shakllangan bo'lib, bhakt shoirlar ijodi orqali hind jamiyatida ular qayta tiklangan, mustahkamlangan va jamiyatda ularning o'rni va ahamiyati oshganligi shu davr shoirlari ijodi misolida ochib beriladi.

## PERCEPTION OF NATIONAL TRADITIONS IN THE BHAKTI POETRY OF THE BABURI PERIOD

*Ulfatkhan Muhibova**Teacher, doctor of philological sciences, professor,**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan*

## ABOUT ARTICLE

**Key words:** braj, nanddas, bhakti, poetry, krishna, chitswami.

**Abstract:** This article examines Indian national values reflected in the literary heritage of bhakti that flourished in India during the era of the Baburids.

These values, in fact, were formed in the structure of ancient Indian epics, and thanks to the works of poets-bhaktas they were restored and strengthened in Indian society, and the fact that their place and importance in society has increased is revealed by the example of the work of poets of this period.

## ВОСПРИЯТИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ В ПОЭЗИИ БХАКТИ ПЕРИОДА БАБУРИ

*Ульфатхан Мухибова**Педагог, доктор филологических наук, профессор,*

Ташкентский государственный университет востоковедения  
Ташкент, Узбекистан

---

## О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** браж, нандас, бхакти, шеърият, кришна, чхитсвами.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются индийские национальные ценности, отраженные в литературном наследии бхакти, процветавшем в Индии в эпоху правления Бабуридов.

Эти ценности, по сути, формировались в структуре древнеиндийских эпосов, а благодаря произведениям поэтов-бхактов были восстановлены и укреплены в индийском обществе, а то, что их место и значение в обществе возросло, раскрывается на примере произведения поэтов этого периода.

---

## INTRODUCTION/ ВВЕДЕНИЕ/KIRISH

Bugungi hind milliy qadriyatlarini, ya'ni turli rasm-rusumlar, urf-odatlar, milliy bayramlar va boshqa qadriyatlar, aslida, kelib chiqish jihatdan qadimgi hind adabiy merosining bebaho namunalari "Ramayana" va "Mahabharata"lar tarkibida shakllangan. Va, umuman olganda, hind xalqining milliy madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi va ma'anaviy boyligi hanuzgacha o'sha qadimiy eposlar bilan chambarchas bog'liqligicha qolmoqda. Ushbu maqolada mana shu voqealari meloddan avval bo'lib o'tgan eposlarning bhakti adabiyoti orqali o'rta asrlarda yana qayta tiklanganligi va bugungi kungacha ularning jamiyatda puxta saqlanib qolganligi, hind xalqining o'z milliy ildizlari bilan qanchalik chuqur bog'liqligi va ularning o'z qadriyatlariga qanchalik sadoqatli ekanligi ko'rsatib berilgan.

O'sha davrda ijod qilgan barcha shoirlarning asosiy ijod mavzusi bhakti g'oyalarini targ'ib qilishdan iborat bo'lgan va ular bugungi kunda *bhakti shoirlar* nomi bilan tarixda qolgan. Bhakti ta'limoti g'oyalariga asoslangan ushbu she'riyatda, asosan, Ram va Krishna ma'budlariga bo'lgan mehr va sadoqat kuylanganligi bois bu she'riyat to'liq ravishda eposlar mazmuni bilan bog'liq. Jamiyatda ma'bud Ram va Krishnaga bo'lgan mehr va e'tiqodni kuchaytirish maqsadida Ramni kuylovchi rambhakti va Krishnani madh etuvchi krishnabhakti she'riyati shakllangan. Va, albatta, bu she'rlarda qadimgi hind jamiyatining turli an'analari, urf-odatlarini, bayramlari va rasm-rusumlari o'z aksini topgan.

Bhakti she'riyatining eng katta merosi "Ashtachxap" (Sakkiz shoir ittifoqi) nomli krishnabhakti shoirlar qalamiga mansubdir. O'z ijodini ma'bud Krishnani kuylashga bag'ishlagan bu shoirlar o'z-o'zidan Mahabharata eposiga murojaat etgan. Bu epos esa hind xalqi milliy qadriyatlarining asosiy qismini o'zida aks ettirgan epos hisoblanadi. Quyida "Ashtachxap" shoirlari ijodi misolida turli qadriyatlar haqida birma-bir so'z yuritiladi.

Jumladan, *Pxulmandali bayrami* yoz mavsumida nishonlanadi, bu bayramda har bir narsa guldanday yasalanadi. Masalan, eposda ikki oshiq sifatida tasvirlangan Radxa-Krishna uchadigan arg'imchoq, undagi o'rindiq, ular ovqatlanadigan idishlar, ustunlar va umuman, ular nimaiki ishlatsa, barchasi gul bilan bezalgan bo'ladi. Krishnadas o'z ijodida mana shu mavzu bilan bog'liq madhiya bitgan va she'rda gullardan yasalgan sakkiz ustun o'rtasida Radxa bilan Krishnaning o'tirgani, bo'ynidagi gulchambari, ularning soyaboni, yostiqlari, yopinchi, taxtiravoni, hattoki nafas oladigan havosi ham gullardan yasalganligini tasvirlaydi<sup>1</sup>. Shuningdek, "Ashtachxap" ittifoqi rahbari krishnabhakti shoir Surdas ham o'zining "Sursagar" asarida Pxulmandali bayrami haqida she'r yozgan. Uning she'rida Pxulmandali bayramida gullardan

---

<sup>1</sup> Krishnadas pad sangrah. – Kankro'li. Pad 1004 va 1007 (misralar).

qurilgan saroyda gullardan yasalgan taqinchoqlar taqib eng oliy navli gullar o'rtasida Krishna va Radxa o'tirgani tasvirlangan qo'shiq yozgan<sup>2</sup>.

Cheytra (aprel) oyida nishonlanadigan **gango'r** bayramida Braj yurtining yosh qizlari erta tongda qo'llarida gullar bilan Gaori va Parvati ma'budalariga ibodat qiladilar, Ayniqsa, Rajastxanda bu bayram juda tantanali nishonlanadi. Rajastxanlik bhakt shoira Mirabai ham o'z she'rlarida rang-barang Gangaori ibodati haqida yozib, “रे सवलिया, म्हारे आज रंगीली गंगौर है – जी<sup>3</sup>, ya'ni, “*Kel dugonajon, bugun nishonlaymiz gangaori bayramini*”. Shuningdek, Krishnadasning quyidagi misralarida ham Nandinining o'z dugonalari bilan Gangaori bayramini nishonlagani haqida yozgan:

मलय घनसार कर्पूर मृगमद लाई  
घरति ललिता तहां सनेह सान्यो।  
“कृष्णदास” निनाथ नवल राधा साथ  
तीज गनगौरि त्यौहार मान्यो।<sup>4</sup>

mazmuni:

“*Quvnashar soz chalib Lalita do'stlari bilan,  
Krishnadas Radxa bilan gangaori bayramida shodon o'ynashar*”.

**Akshay tritiya** bayrami beyshakx (may) oyida nishonlanadi. Bu bayram badanga xushbo'y hid keltiradigan chandan yoki agraja o'simligidan surtish bilan bog'liq bayram bo'lib, bu haqda Surdas ham, Krishnadas ham o'z she'rlarini yozgan.

आजु बने नंद नंदन री नवचंदन अंग अरगजा लाएं।  
रुकत हार सुढार जलद मनि गुंजन अलकनि अलि समुदाएं।  
पीत बसन तन बन्यो है पिछौरा टेढी पाग ढौरों लटकाएं।  
अक्षय तृतीया अक्षय लीला अक्षय “कृष्णदास” सुख पाएं।<sup>5</sup>

Mazmuni:

*Kel Nand o'g'li surt tanangga toza chandan rangini,  
Gulchambar os bo'yningga, diling yonsin, jaranglasin qo'shiqlar  
sharbatlarni ich, idishlar to'la unga*

*Akshay tritiya akshay o'yinlari akshay Krishnadas olsin shavq.*

Yana ajoyib bayramlardan biri bu asharx (iyun) oyida nishonlanadigan **ratx yatra** bayramidir. **Ratx yatra** Krishnani Braj bo'ylab aravada sayr qildirish bilan bog'liq bayram bo'lib bu bayramga bhakti targ'ibotchilaridan biri faylasuf Vitxalnatx asos solgan. Bu haqda “Ashtachxap” shoirlaridan Surdas, Parmananddas va Krishnadaslar ham qator she'rlar yozgan. Quyida Krishnadasning Radxa bilan Krishnani Braj yurtida aravada sayr qilgani haqidagi she'r keltirilgan:

देखो माई! रथ बैठे पिय प्यारी।  
गौर स्याम तन अति छवि राजत निरखि नैन मनुहारी।<sup>6</sup>

mazmuni:

*Karanglar do'stlar, sevishganlar aravada o'tirar shodon*

*Gaori (Radxa) Shyam(Krishna), badanlari bamisoli marmar, ko'zlar ma'nodor.*

Ayollar va qizlar bayrami hisoblangan **hindo'ra bayrami** shraavan (iyul) oyida nishonlanadi. Bu bayramda ayollar qo'shiq kuylab hindorada (guldan yasalgan arg'imchoq) uchadilar. Parmananddas va Krishnadas o'z ijodida ushbu mavzuga bag'ishlab quyidagi misralarni bitganlar:

<sup>2</sup> Surdas. Sursagar. (sabxa). Pad 2456.

<sup>3</sup> Mira. Madxuri. –Pad 141.

<sup>4</sup> Krishnadas pad sangrax. – Kankro'li, pad 1033.

<sup>5</sup> हरगुलाल । कृष्णदास । - दिल्ली, 2001. –B.38.

<sup>6</sup> O'sha manba, -B.39.

कुंज हिंदोरना झूलें रमकि-रमकि  
पचरंग सारी सब पहरें सहचरी लिएं नवला सी  
छवि री झुकि-झुकि झुलावें गावें तमकि-तमकि।<sup>7</sup>

mazmuni:

*Guldan yasalgan arg'imchoq uchaylik,  
Gul rangida sari kiyaylik.  
Uchaveraylik – uchaveraylik shodon,  
Charchash nima bilmaylik.*

Shravan (avgust) oyida nishonlanadigan yana bir bayram bu **pavitra (poklanish)** bayramidir. Aytishlaricha, bu kun yarim tunda Oliy Haq zohir bo'lib, Govindgaxat tog'ida Vallabxacharyani Yaratgan bilan bog'lanishi uchun fotiha bergan, shu bois bu bayram poklanish kuni sifatida nishonlanadi "Ashtachxap" shoirlari ijodida ushbu bayram turlicha tasvirlanadi. Ya'ni bu bayramga har bir shoir o'zicha mehr beradi va she'rida bayramni o'z tasavvuriga ko'ra talqin etadi. Jumladan, Surdas nazdida Poklik kuni uning ma'budi Krishna oltin rang salla kiygan. Parmananddas tasavvurida esa Pavitra Vallabxaga emas, Radxaga kiydirilgan. Kumbxandas she'riyatida Pavitra kechasi Krishna Radxa bilan uchrashadi. Krishnadas she'rida Yashoda Krishnaga Pavitra kiydirib turli shirinliklar bilan mehmon qiladi:

पहिरत पाट-पवित्रा मोहन नंदरानी पहिरावै।  
पुआ सुहारी अरु लडुआ लै हंसि हंसि गोद भरावै।<sup>8</sup>

mazmuni:

*Yoqimli Moxanga Pavitra kiydirdi Nanda malika  
Shirin meva va laddular bilan to'ldirdi uning etagin.*

Hind jamiyatida yana bir juda sevimli va o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan bayramlardan biri bu **rakshabandxan** bayramidir. Bu bayram ham shravan oyida nishonlanadi. Qadimda shohlar jangga ketishidan avval ularni dushmandan himoyalash, g'alaba bayrog'i bilan qaytishini niyat qilib qizlar otalarining bilagiga maxsus bog'ich bog'lash an'anasi bo'lgan va bu bog'ich to o'zi yechilib ketmagunicha qo'ldan olinmagan. Ushbu bayram o'sha qadimiy davrda shakllangan odatga asoslangan bo'lib, XXI asrda ham juda tanatana bilan nishonlanib kelinmoqda. Keyinchalik bu bog'ichni qizlar o'z aka yoki ukalariga ham bog'lash urfga kirgan. Uning ma'nosi urush, jang bilangina bog'liq bo'lmay, har qanday yomonliklardan saqlovchi bir ramz sifatida bog'lanadigan bog'ichga aylanib ketgan. Bhakt shoirlar ijodida bu haqda juda ko'p misralar bitilgan. Jumladan, Kumbxandas va Govindsvamilar bog'ich hisoblangan rakshani yoki rakxini "rachxa" deb she'r bitganlar. Surdas she'riyatida himoya bog'ichini bog'laganlarga ma'bud Krishna minnatdorchilik tarzda sovg'alar tarqatgani, Krishnadas she'rida esa Krishnaga himoya bog'ichini Yashoda bog'lagani haqida kuylanadi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, qadimgi eposlar mazmuniga murojaat etgan bhakt shoirlar Krishna hayoti bilan bog'liq turli urf-odat va bayramlarni nazardan chetda qoldirmasdan o'z she'riyatining yetakchi mavzusiga aylantirgan va xalqni Krishna bilan yanada yaqinlashtirishga va bu orqali xalq e'tiqodini kuchaytirish bilan bir qatorda milliy qadriyatlar ahamiyatini ham oshirishga katta hissa qo'shganlar.

Hind xalqining eng katta va eng sevimli va deyarli jahon ahliga hind filmlari orqali tanish bo'lgan bayramlardan biri bu **Xo'li**, ya'ni ranglar bayramidir. Deyarli barcha krishnabhakt shoirlar ijodida alohida o'rin tutadigan bu bayram ham "Mahabharata" voqealari orqali hind jamiyatiga kirib kelgan. Eposda Radxa o'z sakkxalari (dugonalari) bilan, Krishna esa o'z sakkxalari (do'stlari) butun Braj ahli bilan juda tantanali ravishda cheksiz quvonch bilan xo'lini nishonlaganliklari kuylanadi. "Ashtachxap" shoirlari, albatta, ho'liga atab juda ko'p she'rlar

<sup>7</sup> O'sha manba, -B.39.

<sup>8</sup> O'sha manba, -B.40.

bitganlar. Bu bayram, asosan, fevral yoki mart oyida yangi oy chiqishiga qarab belgilanadi va butun Hindiston miqyosida keng nishonlanadi. Bhaktida “Mahabharata” voqealari bo‘lib o‘tgan Braj yurtida ko‘pincha Krishna va Radxaning ho‘lini nishonlaganliklari kuylanadi. Ayniqsa, Brajda Krishnaning akasi Daujining ho‘lini nishonlagani hanuzgacha “*Dau ji ka Xoranga*”<sup>9</sup> nomi bilan yuritiladi. Bu bayramning o‘ziga xosligi shundaki, ho‘li butun Hindistonda bir kun nishonlansa, “*Dau ji ka Xoranga*” bir oy nishonlanadi va bayramda butun qishloq ahli bir-biriga chelaklarda, nasoslarda rang-barang suvlarni sepib, qo‘shiq kuylab, raqsga tushadilar. Bayramni tomosha qilish uchun turli hududlardan fidoyi krishnabhaktlar keladilar. Jumladan, Surdas yozadi,

होली के दिन दिल खिल जाती है,  
रंगों में रंग मिल जाती है।

mazmuni:

*Xo‘li kuni dillar quvonadi,  
Ranglar ranglar bilan qo‘shiladi.*

Nanddas ham ho‘lini tarannum etib, o‘z she‘rida ho‘li bayramida chalinadigan asboblarni keltirib o‘tadi va bu orqali o‘rta asr braj madaniyatini aniq namoyon etadi:

बाजत ताल, मृदंग, मुरज, डफ कही न परत कछु बात ।  
रंग सौं मनि ग्वाल-बाल सब, मानों मदन बरात।<sup>10</sup>

mazmuni:

*Tal, mridang, muraj, daflar ovozi buzar butun olamni,  
rang sepilar barchaga, shovqini eslatar go‘yo Madan moxan to‘yini.*

Krishnadas she‘riyatida ham ho‘li mavzusiga bag‘ishlab juda go‘zal she‘rlar bitilgan. Bhakti adabiyotida ho‘li bayrami Radxa-Krishna sevgisini ifodalovchi bayram sifatida talqin etilishi asosida hind kinosanoatiga shu mazmun o‘zgaragan holda kirib borgan va ko‘pincha oshiqning bir-biriga bo‘lgan munosabati ho‘li bayramlariga bag‘ishlangan qo‘shiq va raqslar orqali aks ettirib kelinadi. Faqat o‘rta asrlardagina emas, hattoki bugungi shoirlar orasida ham ho‘li bayramini kuylamagan biron bir shoirmi topish qiyin.

**Kartik snan** nomli ajoyib bir bayram ham faqatgina hind xalqiga xos bo‘lgan milliy bayramdir. Bu bayram suvni e‘zozlash, daryolarni muqaddas sanash, ularga ibodat qilish kabi hind xalqi dunyoqarashi bilan bog‘liq bayramdir. Shimolda Ganga va Jamuna daryolari, janubda Brahmaputra, Sarasvati, Kaveri kabi daryolar muqaddas sanaladi va ularning muqaddasligi haqida turli rivoyatlar ham bitilgan. Shimolda Ganga va Jamuna daryolari hali-hanuz muqaddas daryolar sifatida talqin etiladi. Ganga daryosi “Ramayana” va Jamuna (Yamuna) daryosi “Mahabharata” eposlari bilan bog‘liq. Shu bois Ram deganda Ganga<sup>11</sup> va Krishna deganda Yamuna daryosi tilga olinishi bejiz emas.

“Ashtachxap” shoiri Chxitsvami o‘z she‘rida Jamuna daryosining muqaddasligini kuylagan:

जब लगी जमुना गांड़ गोवर्धन गोकुल गांउ गुसांई।  
तब लगी श्री भागवत कथा-रस तब लगी कलिजुग नांई।  
जब लगी सेवक, सेवाभाव-रस, नंद नंदन सौं प्रीति लखाई।  
छीतस्वामी गिरिधरन श्री विट्ठल प्रगटे भक्तनि कौं सुखदाई।<sup>12</sup>

mazmuni:

*Yamuna, Govardhan, Gokul va Gosai nomini eshitib*

<sup>9</sup>Dau ji Krishnaning akasining ismi va u ho‘lini Braj aholisi bilan ranglar va rangli suvlar sepish bilan juda katta tantana bilan nishonlagan, Braj ahli har yili ho‘lida shu tantanani takrorlaydi.

<sup>10</sup>सारला चौधरी । नंददास । शकुण प्रीटर्स । – दिल्ली, 2006.-B.34.

<sup>11</sup> Buni biz zamonaviy hind filmlari va qo‘shiqlarida kuza tishimiz mumkin, jumladan, Raj Kapurning “Ram teri Ganga meyli xo gai” – “Ram sening Gangang loyqalandi” nomli filmi va boshqalar.

<sup>12</sup>वसंत यमदामिल। छीतस्वामी। बीबा प्रेस. – दिल्ली, 2003.-B.11.



*Shunda bildim Yaratgan haqida, yangi Kalyug haqida.  
Shunda bildim asl e'tiqod nima, zavq nima, Nand Nandan kim.  
Vittal bo'lib kelgan Giridhar o'z bhaktiga berdi baxtu saodat.*

Bhakti she'riyatida hind musiqa san'atining, turli asboblarining qay darajada mashhurligini ham anglab olish mumkin. Bugungi kunda jahon ahlini o'zining ta'sirchanligi va nihoyatda notalar rang-barangligi bilan e'tiborini jalb qilib kelayotganligi uning qadimiy musiqa san'ati ildizlariga bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Asosan, ma'budlarga madhiyalar kuylash bilan vedalar davrida boshlangan musiqa san'ati, unda qo'llanilgan asboblar jamiyatda hanuzgacha saqlanib qolganligiga bhakti she'riyati orqali ishonch xosil qilish mumkin. Shuningdek, musiqaning nazariy asoslari qadimiy hind san'atining muqaddas kitobi "Natyashastra" (raqs ilmi) nomli asarda yozib ketilgan va bu ilm hind san'ati va madaniyatida nazariy jihatdan eng mukammal kitob sanaladi. Bu asarning ahamiyatli tomoni shundaki, undagi har bir nazariya asosida tomoshabinga ta'sir etish bosh masala sifatida yotadi. Hind san'atida insonga ta'sir darajasining kuchliligi ayni shu asar bilan bog'liqdir. Bu ta'sirchanlikni ta'minlash uchun nimalarga e'tibor berish lozim, sahnada qaysi holda, qaysi epizodda qanday bezak va ranglardan foydalanish, qaysi rangda kiyim kiyish, hattoki teatr binosi qanday qurilishi va unda qaysi tomoshabin qayerda o'tirishi lozimligi aniq belgilab berilgan. Umuman olganda, "Natyashastra" asarida san'at dargohiga kelgan insonning tashqi olamdan butunlay uzilib, san'at asarini yoki dasturni butun vujudi bilan his qilishini ta'minlash uchun lozim bo'lgan barcha usullar va qoidalar jamlangan.

Boburiylar sulolasi hind musiqa san'ati rivojiga ham katta hissa qo'shgan suloladir. Shoh Akbar davrida musiqashunos va qo'shiqchi Tansen o'rta asr musiqa san'atining shohi bo'lib, unga Akbarshoh "Buyuk Tansen" unvonini bergan.

Bhakti she'riyatida shoirlar, asosan, "kirtankar" – "madhiya kuylovchi" bo'lganlar, shu sabab ularning ijodida musiqaning ahamiyati o'zgacha bo'lgan. Ular musiqa san'atiga oid nazariy ilmlarni juda chuqur egallaganlar va o'z ijodlarida ulardan keng foydalanganlar. Jumladan, "Ashtachxap" shoirlarining barchasi kirtankar bo'lib, ularning har biri o'z she'riga o'zi kuy bastalagan va o'zi ijro etgan. Adabiyotshunos olim Xargulal Krishnadas ijodini o'rganish orqali musiqaning bir qancha turlarini qo'llaganligi haqida yozadi. Jumladan, musiqaning quyidagi turlarini Krishnadas ijodiga mansub deb ta'kidlab o'tadi: *asaavarii, to'di, sarang, bilaval, kanxro', gujri, gaori, kedarao, kalyan, malar, dxanashri, iman, vasant, na(t), vixag, jeyjeyvanti, bxeyrav, ramakali, vixagrao, malko's, to'ri, devagandhar, sua, kafi, gandhaar, maru, bxeyrao, malashri, so'ratx, hamir* va boshqalar. Ma'lum bo'lishicha, bu musiqalar bir-biridan pardalar xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

*"Krishnadas ijodida san'atning uchala turi – qo'shiq, soz va raqs bab-barobar qo'llanilgan. U o'z qo'shiqlarida ko'proq mumtoz musiqa namunalaridan foydalangan. Krishnadas o'z qo'shiqlarini folklor qo'shiqlar tarzida yaratgan, musiqada esa shimoliy uslubni o'zlashtirgan, ular dxrupad va dhamar uslublari nomi bilan yuritiladi"*<sup>13</sup> – deb yozadi Xargulal.

Krishnadas she'riyatini mazmun jihatdan ruhiyat quvonchini tasvirlovchi she'rlar, festivallar, bayramlar, yil fasllari, ko'ngilochar hamda ayriliqqa bag'ishlangan qo'shiqlar guruhiga ajratish mumkin. Krishnadas, asosan, Radxa-Krishna sevgisini kuylovchi shoir sifatida tanilgan va uning Krishnaga bo'lgan mehrini vatsalya, ya'ni ota-onalik mehri yo'nalishidagi mehr sifatida baholanadi. Uning she'riyatidagi oshiqning hijron onlaridagi ruhiy azoblarini tasvirlash uslublari, shubhasiz, oliy darajadagi shoir ekanligini ko'rsatadi.

Kirtankar bo'lgan Nanddas ijodida ham musiqaning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodini o'rgangan Sarla Chaudxri shunday deb yozadi: *"Nanddas ne sao se adxik pad likxe. Inke pado'n me anek chxando'n aor git-kxando'n ka prayog paya jata xe. Sabxi pad bxinna-bxinna rago'n me bandxe xeng"*<sup>14</sup>, ya'ni "Nanddas yuzdan ortiq misralar yaratgan.

<sup>13</sup> हरगुलाल । कृष्णदास । - दिल्ली, 2001.-B.51.

<sup>14</sup> सारला चौधरी । नंददास । शकुण प्रीटर्स । - दिल्ली, 2006.-B.47.

*Uning qo'shiqlari turli usullarda ijro etilganini kuzatish mumkin. Barcha padlari xilma-xil ragalarda ijro etilgan*". Nandadas o'z she'rlarida Braj xalqining kundalik hayoti, urf-odatlarini, ko'ngilochar ashyolari, Krishna yashagan joylar, o'sha davr milliy kiyimlari va taqinchoqlari, bayramlar va festivallarni aks ettirgan.

Vasant Yamadgini Chxitsvami ijodini o'rgangan va u ham shunday jumalarni keltiradi: *"Chxitsvami madhiya kuylovchi bo'lgani bois musiqa ilmiga katta ahamiyat berar edi. O'z ma'budiga atab dildagi mehrini izhor qilib aytgan qo'shiqlari uning she'riyatining asosiy mavzusi, hayotining mazmuni edi"*<sup>15</sup>.

"Ashtachxap" shoirlari ijodida inson tug'ilishidan umrining oxiriga qadar amalga oshiriladigan barcha odat va marosimlar aks ettirilgan va ular jami 16 ta deyiladi, ya'ni *namkaran* (farzandga ism berish), *anaprashana* (birinchi bo'tqani yedirish), *karanbedx yoki, jatkarm* (kastasini belgilash), *antyeshti yoki upanayan* (nasihat), *vedarambx* (vedani boshlash), *shashtxi pujan* (ibodat boshlash), *varshgantx* (yoshga to'lishi), *vivax* (to'y), *maot* (o'lim) va boshqalar. Krishnadas o'z she'rlarida Radxa va Krishnaning tug'ilish bilan bog'liq namkaran va jatkaram marosimlariga misralar bitgan. Krishna *janamashtami* yoki *janamutsav* (Krishnaning tug'ilishi) butun Hindistonda nishonlanadi va taqvimda bu kun ham milliy bayramlardan biri sifatida qizil rang bilan belgilanadi.

Braj madaniyati, urf-odatlarini va bayramlari haqidagi misralar Chxitsvami she'riyatida ham juda sarmahsuldir. *Radxashtami* (Radxaning tug'ilishi)ga bag'ishlangan qo'shiqni doim ibodatxonalarda ijro etgan. She'rda, asosan, Radxaning go'zalligi, otasining qizi uchun qilgan xayr-sadaqalari haqida kuylagan, deb yozadi Vasant Yamadgini o'z tadqiqotida<sup>16</sup>.

Hind falsafasida ma'budlarning sarguzashtlari *lila* atamasi bilan nomlanadi va bu lilalar nomi turli xildir. Ularning nomi asosan, vaqt va joy nomi bilan belgilanadi. Jumladan, *nityalila* (abadiy o'yinlar) bayrami haqida Chxitsvami she'r bitgan. She'rda Krishnaning onasi Yashoda mehr bilan erkatoyi Krishnani uyg'otishi tasvirlangan: "प्रातः काल हो गया है, प्राणों के अधार उठो, तुम तो मेरे कष्ट निवारक हो। मकखन, मिसरी, दूध, मलाई, मेवा, चावल, पकवान, मिठाई, आदि का उल्लेख करके कवि ने नतवर बिहारी को गौचरण के लिये भेजा है। साथी द्वार पर गाय, बछरा लेकर खड़े हैं और कृष्ण को परामश देते हैं कि सुबह से झर लगा है, यहीं भोजन किया जाए, आज वन जाना संभव नहीं है।"<sup>17</sup>, ya'ni, *"Tong otdi, jonlarning joni, tura qol, axir, sen menga yoqimli azob beruvchimsan. Sariyog', novvot, sut, qaymoq, mevalar, guruch, pishiriqlar va shirinliklar bilan mehmon qilib, Bixarini (ya'ni Krishnani) sigir boqish uchun jo'natdi. Eshik ortida do'stlari sigir va qo'ylari bilan kutib turibdilar va Krishnaga shuni aytmog'chilarki, erta tongdan senga muntazirlar keldi, bugun o'rmonga bormay qo'yaylik, nonushtani shu yerda qila qolaylik"*.

*Sigir* hindularda muqaddas hayvon, chunki u sut beradi, sutni bolalar ham, kattalar ham birdek sevib tanovul qiladi. Hindistonda sutsiz hayotni tasavvur etib bo'lmaydi, chunki kuniga 4-5 mahal ichiladigan choy ham sut bilan tayyorlanadi. Hindistonning qayeriga bormang har qadamda sutli choy sotilishini kuzatish mumkin. Shu bois, hindlarda sigir oilaning baxti, moddiy muammolarni hal qiluvchi bir xazina hisoblanadi. Braj yurtida sigirning yana ham qadrli bo'lishiga "Mahabharata" voqealari va Krishna sarguzashtlari sabab bo'lgan.

Eposda, ma'lumki, Krishna sigir boquvchi cho'pon obrazida namoyon bo'ladi. Hind miniatyura san'atida ham va, umuman, ma'bud Krishna bilan bog'liq rasmlarda Krishna doim sigir bilan yonma-yon turgan holda tasvirlanadi. Bu hodisalar bhakt shoirlar ijodida ham sigirning muqaddas hayvon sanab, Krishna va Braj ahli uchun eng qadrli jonivor va sevimli hamroh sifatida tasvirlanishiga asos bo'lgan. Masalan, Chxitsvami Brajdagi Krishna hayotining sigir bilan bog'liq lavhalarini shunday tasvirlaydi,

अर्गे गाँइ पाछे गाँइ, इत गाँइ, उत गाँइ,  
गोविंद कों गाँइनि में बसिबोई भावै।

<sup>15</sup> वसंत यमदामिल। छीतस्वामी। बीबा प्रेस. – दिल्ली, 2003.-B.23

<sup>16</sup> O'sha manba, -B.29.

<sup>17</sup> O'sha manba, -B.29.

गाइन के संग धावै, गांइनि में सचु पावै  
गांइनि की खुर-रज अंग लपटावै।<sup>18</sup>

mazmuni:

*Orqada sigir, oldinda sigir, u yerda sigir, bu yerda sigir,  
Govind (Krishna) sigirlar olamida yashaydi.  
Sigir bilan yuradi, sigir bilan Haqni izlaydi  
Sigirni o'zining bir bo'lagi deydi.*

Krishnaning oldida sigir, orqasida sigir, uning atrofida qayga qarama faqat sigir. Unga sigirlar bilan birga bo'lish yoqadi, ular bilan yuguradi, ko'tarilgan changi butun badaniga yopishadi, shu sigirlarning hayotini saqlab qolish uchun Krishna Govardhan tog'ini jimjilog'ida ko'targanida, u hatto veykuntxni<sup>19</sup> ham unutgan edi.

Chxitsvami Krishnani sigir boqib yurgan paytini shunday tasvirlaydi, “*boshida toj, qo'lida nay, chandan surtib olgan, bo'ynida gulchambar taqib, nayini chalib, sigirlar ortidan ohista-ohista qadam bilan barchani o'ziga mahliyo qilib yuradi. Braj ahli uning sigirlarga bo'lgan mehri va sadoqatidan lol qolar edilar*”<sup>20</sup>.

Braj madaniyatida Krishna bilan bog'liq ikkinchi sirli narsa bu *naydir*. Nay va sigir Krishnaning atributlari hisoblanadi. Krishnani naysiz va sigirsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Krishna nayining navosi nafaqat sigirlarni bir yerga jamlaydi, balki uning ovozi Braj go'pilarining ham bir zumda hushini oladi. Nay bu Krishna mavjudligining belgisidir. Krishnaning o'zi emas, uning nayining ovozi ham barchaning yuragiga, qalbiga yetib boradi va unga g'ulg'ula sola boshlaydi, bu g'ulg'ula Krishnaning hozir qandaydir bir hazil yoki karomat ko'rsatishiga ishoradir. Ashtachxap shoirlari nayni dunyoviy va sirli olamga ega bo'lgan soz sifatida baholaydilar va bu asosda nayga ikki xil ta'rif beradilar, birinchisiga ko'ra, nay cho'pon Krishnaning sigirlarni bir yerga to'plash uchun chaladigan cholg'u asbob bo'lsa, ikkinchisida esa, botiniy olam sirlaridan voqif bo'lgan, Radxa-Krishnaning botiniy o'yinlari bilan bog'liq nay obrazi. Jumladan, *Krishnaning nayni yetti marta chalishi Radxaning ismini aytish bilan barobardir*<sup>21</sup>, – deb yozadi Xargulal. Aynan shu botiniy naydan go'pilar ko'pincha Krishnani qizg'onadilar, nayni o'zlariga kundosh deb bilib, hatto Krishnani undan rashk qiladilar.

Shu tarzda, biz “Ashtachxap” shoirlarining krishnabhakti she'riyati orqali Braj madaniyati, urf-odatlarini, hind milliy an'analari haqidagi qiziqarli va xalq sevib nishonlaydigan bayramlar haqida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin va bu bayram va an'analari, aslida, qadimda “Mahabharata” voqealari davrida, aynan Radxa-Krishna o'yinlari bilan bog'liq ravishda shakllangan bo'lib, o'rta asrlarda bu an'analari bhakti ta'limoti tufayli hind jamiyatidagi o'z o'rnini mustahkamladi va bhakt shoirlar ijodida bu narsa keng miqyosda adabiy jarayonlarga kirib keldi.

<sup>18</sup> O'sha manba, -B.37.

<sup>19</sup> Ma'budlari yashaydigan makon veykuntx deb ataladi.

<sup>20</sup> O'sha manba, -B.32.

<sup>21</sup> हरगुलाल । कृष्णदास । – दिल्ली, 2001.-B.55.